“Sohibqiron Amir Temurga ehtirom” nomli tadbir o’tkazildi

O’zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi Toshkent shahar hokimiyati, Xalqaro Amir Temur jamoat fondi, O’zbekiston Qurolli kuchlari muzeyi, O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 686 yilligiga bag’ishlangan “Sohibqiron Amir Temurga ehtirom” nomli tadbirlar turkumi o’tkazildi.

Poytaxtimiz markaziy maydoni – Amir Temur xiyobonida davlat va jamoat arboblari, xorijiy diplomatik korpus vakillari, mahalla faollari hamda talaba-yoshlar ishtirokida tantanali yig’ilish bo’lib o’tdi. Mehmonlar tomonidan ulug’ Sohibqiron haykali poyiga gulchambarlar qo’yildi.

Shundan so’ng, yig’ilganlar Temuriylar tarixi davlat muzeyiga tashrif buyurdilar. Bu yerda O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi “Turon” harbiy teatri, O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Markaziy ashula va raqs ansambli hamda Toshkent shahar Yashnobod tumani 153-maktabning musiqiy-badiiy chiqishlari bo’lib o’tdi.

Shuningdek tadbir davomida tomoshabinlar muzeyda tashkil etilgan “Temuriylar davri madaniyati rassomlar ijodida” va “Yangi Sanganak” xazinasi nomli yangi ko’rgazmalar bilan yaqindan tanishdilar.